

Bo'rsiq ko'li

Hikoya

Ko'lining qirg'oqqa yaqin qismini xazon uyumi qoplagan edi. To'kilgan barglar uyumi judayam qalinligidan baliq ovlashning sira ilojini qilolmadik. Qarmog'imiz suvga bormay qatlanib yotgan xazonlar ustida turib qolardi.

Noiloj biz eski qayiqqa o'tirib, ko'l o'rtasiga bordik. Bu yerda ham nilufarlar gullagan, ko'm- ko'k zilol suv o'rnida qop-qora loyqa suvga duch keldik. Ammo biz turli xil olabug'a, qalayrang va ko'zlari bir juft mitti oyni eslatadigan yosh baliqlarni hamda ignaday cho'rtanbaliqlarni ovladik.

Ertalab ko'l bo'yi va o'rmonni qalin tuman qoplagan. Ko'p o'tmay shamol esishi bilan birpasda tuman tarqab, ko'k yuzi tiniqlashib, uzoqdagi oqish bulutlar ham ko'rina boshladi.

Kechasi esa yon-atrofdagi chakalakzorning shitirlashi-yu, qo'l uzatsa yetgudek yaqin yulduzlarning jimirlashlari kishida boshqacha taassurot uyg'otdi. Biz qo'nalg'amizda gulxan yoqdik. Olovni ketini uzmay yoqar edik, chunki o'tga bo'ri va boshqa vahshiy jonivorlar yaqinlashmaydi. Chindan ham ko'l sohili va o'rmon suv quygandek jimjit edi. Bu tinchlikni faqat gulxan tutuni buzardi, xolos...

Ishonchimiz komil, jonivor borki hammasi olovdan qo'rqadi. Shunday oqshomlarning birida biz kutmagan voqea ro'y berdi. Xurillagan qandaydir bir jonivor gulxan tomon yaqinlashayotganini sezib qoldik. Qorong'ida uning rangini ilg'ab bo'lmasdi. U es-hushini yo'qotib atrofimizda chopib aylanar edi. Bulutlarning balandligidan uning qulog'i ham ko'rinmasdi. To'g'risi, o'zini yo'qotib, tevaragimizda chopishiga sabab, to'vada qovurilayotgan kartoshkaning yoqimli hidi edi.

Bizga qo'shilib baliq oviga bitta yosh bola ham kelgandi. Chamasi u endigina to'qqiz yoshda. Ammo o'zini kattalardek tutishi, ayniqsa, lofchiligi bizga yoqib qolgandi. Aytayotgan hikoyasini o'zi boshidan kechirgan- dek, gapga "to'n kiydirib" yuborardi.

Garchi uning gaplari yolg'onligini bilsak ham, o'zimizni bunga ishonayotgandek ko'rsatardik. Har kuni bizni biron yangilikdan xabardor qilardi. Bir kuni u baliqning qanday shivirlaganini eshitib qolganini aytsa, ertas chumolining ariqchadan o'tganini ko'rganin gapirardi. Keyingi kuni esa quyosh botish oldidan ufq o'rniga kamalak chiqqanidan lof urardi.

Borliqni tunning qora chodiri qopladi Kechikib chiqqan oy bulutlar pardasini yirtib yuz ko'rsatdi. Ko'l suvi qora tusga kirdi. Tog' cho'qqilaridagi qorning qizg'ish rangda tovlanishi, ayniqsa, qarag'ayning dengizda; shovullashi bizda o'zgacha kayfiyat uyg'otdi.

Shovvoz hammamizdan burun jonivorning pishqirig'ini eshitib, bizga qarab barmog'ini og'ziga tutib "jim" dedi. Hammamiz jim bo'ldik. Kim biladi, bu yerda hamma narsani kutsa bo'ladi.

Yarim soatcha o'tib, chakalakzor orasidan uzun namchil qora tumshuqli jonivor ko'rindi. U ochko'zlik bilan yutoqib havoni hidlab turdi. So'ng butalar orasidan uning qo'rqinchli yuzi, vahimali tikilgan yumaloq ko'zlari ko'rindi. Keyin jonivorning olachipor gavdasi paydo bo'ldi. Bizga chakalakzordan yosh bo'rsiq mehmonga kelgan edi. U old panjasining bittasini yelkasiga tortib menga qarab turdi. U pishqirgancha tova tomon shitob bilan burildi. Men hay-haylagunimcha jonivor yog' qaynayotgan tovaga ochofatlik bilan tumshug'ini tiqdi...

Birdan kuygan jun va teri hidi taraldi. Bo'rsiq dahshatli chiyillagancha o'zini orqaga otdi va chakalakzorga singib ketdi. Sho'rlik og'riqqa chidolmay osmonni boshga ko'targudek bo'kirar edi. Atrofni qurbaqalarning xavotirli vaqillashi, hurkib qo'nog'ini tark etgan

qushlarning chug'urlashi tutib ketdi. Hatto bir pudcha keladigan cho'rtanbaliq qirg'oqqa zambarakday kelib gumburlab urildi.

Meni ertalab shovvoz bola uyg'otar ekan, bo'rsiq kuygan tumshug'ini qanday davolaganini ko'rib kelgani haqida gapira ketdi.

Uning odatdagi lofi, deb o'ylab, gapiga ishonmadim. Uyqusiragan ko'yi gulxan atrofidan joy olar ekanman, qulog'imga qushlarning ertalabki nag'masi chalindi. Olislardan baliqchi qushlar sayrashi-yu, o'rdaklarning g'ag'alagani va turnalrning kurkurlashi eshitilsa, to'qaydan ku-kulayotgan musichalarning tovushi kelib turardi.

Shovvoz qo'limdan tortib xarxasha qilavergach, uning ra'yini qaytarolmay, noiloj ornimdan qo'zg'aldim. Chunki u menga bo'rsiqchaning kuygan tumshug'ini qanday davolaganini ko'rsatib, o'zining rostgo'yligini isbotlashga urinardi.

Biz ehtiyotkorlik bilan chakalakzor butalari orasidan sezdirmay o'tib, unga qarab turdik. U tumshug'iga nimanidir surkagani bilinib turardi. Chirigan to'nkaning o'rtasini kavlab, namchil va salqin chuqurchaga tumshug'ini dam-badam suqardi. Muzday hol kukun uning kuygan tumshug'iga malham bo'layotgandi. Boshqa bir yosh bo'rsiqcha atrofda gir aylanar, unga er kalanib suykaldi. Tumshug'ini uning kuygan tumshug'iga tekkizganda bo'rsig'imizning jon-poni chiqib ketdi. Og'riqqa chidolmay, uni orqa oyog'i bilan tepib yubordi.

Sho'rlik tili bilan kuygan tumshug'ini yalar ekan, yumaloq, tim qora yoshli ko'zlarini bizdan uzmay yordam so'rardi. Unga achinishdan boshqa hech qanday nafimiz tegmasdi. Ilgari Nomsiz ko'l deb kelingan bu manzilni shu kundan boshlab "Dovdir bo'rsiq ko'li" deb atayboshladik.

Oradan bir yil o'tib, ko'l bo'yida yana shu tumshug'i chandiq bo'rsiqqa duch keldim. U ko'lga tushib, suvni shaloplatib nimanidir ushlashga urinar edi. Men qadrdonimni tanib salom, deya qo'limni silkitgan edim, u sendan xafaman, deganday pishqirgancha chakalakzorga o'zini urdi.

So'ng men uni qayta ko'rmadim.

G'uncha jurnali
Konstantin Paustovskiy
Ochil Tohir tarjimasi.